

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining  
2024-yil "10A" -so'nbuyrug'iga 2-ilova



**Oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqich bitiruvchi kurs talabalari o'rtasida "Kimyo", "Biologiya", "Fizika" hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlaridan respublika fan olimpiadasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi**

**VAQTINCHALIK NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Vaqtinchalik Nizom oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqich bitiruvchi kurs talabalari o'rtasida respublika fan olimpiadasini (keyingi o'rinlarda – Olimpiada deb yuritiladi) tashkil etish, o'tkazish, unda qatnashish va olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibini belgilaydi.

Ushbu Olimpiada bakalvriat bosqichining 2023/2024-o'quv yili bitiruvchi kurs talabalari o'rtasida o'tkaziladi.

2. Olimpiadani o'tkazishga Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz deb yuritiladi), Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi hamda oliy ta'lim muassasalari mas'ul hisoblanadi.

3. Olimpiadani tashkil etish yuzasidan Vazirning tegishli buyrug'i asosida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Kimyo", "Biologiya", "Fizika" hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlaridan oliy ta'lim muassasalarida Olimpiadani o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mita tarkibi tasdiqlanadi.

4. Oliy ta'lim muassasasi Tashkiliy qo'mitasi Olimpiadaning tashkiliy-texnik va axborot tizimlarini tashkillashtiradi hamda Olimpiadaning g'oliblarini o'rnatilgan tartibda tegishli fanlar bo'yicha laboratoriya va amaliy topshiriqlarni adolatli, shaffof o'tkazilishini ta'minlaydi.

**2-bob. Olimpiadaning maqsad va vazifalari**

5. Olimpiadaning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

- talaba yoshlar orasidan kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha iqtidorli, qobiliyatli va iste'dodli talabalarni aniqlash;

- talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishni oshirish;

- tayanch kompetensiyalarni, kasbiy-ahamiyatli shaxs sifatlarini, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash motivatsiyalarini shakllantirish;

- yoshlar o'rtasida ilmiy bilimlarning keng tarqalishi va ommalashishiga erishish;

- iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va intellektual rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni kengaytirish.

6. Olimpiadaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari yoʻnalishlari boʻyicha iqtidorli va qobiliyatli talabalarni saralash va qoʻllab quvvatlash hamda ularni ragʻbatlantirish tizimini yaratish;

- iqtidorli yoshlarning olimpiadalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va bilimlarini mustahkamlab borish, shuningdek, respublika miqyosida tengdoshlari orasida ilmga boʻlgan qiziqishni targʻib etishni yanada kuchaytirish;

- mantiqiy fikrlash va ilmiy faoliyatga qiziqishlarini oshirish.

### **3-bob. Olimpiada oʻtkaziladigan fanlar va oʻtkazish tartibi**

7. Olimpiada kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari fanlari boʻyicha 2024-yil 10-20-iyun kunlari oraligʻida oʻtkaziladi.

8. Olimpiada ishtirokchilari [olimpiada.edu.uz](http://olimpiada.edu.uz) elektron platformasidan roʻyxatdan oʻtadi. Roʻyxatdan oʻtish boshlanishi haqida vazirlikning rasmiy sahifalarida va elektron platformada eʼlon beriladi. Roʻyxatdan oʻtish jarayoni olimpiadani oʻtkazish sanasidan ikki kun oldin toʻxtatiladi.

Olimpiadani oʻtkazish kuni vazirlikning muvofiqlashtiruvchi Tashkiliy qoʻmitasi tomonidan belgilanadi.

Olimpiadani oʻtkazish sanasi va vaqti boʻyicha jadval asosida [olimpiada.edu.uz](http://olimpiada.edu.uz) portaliga maʼlumot joylanadi.

9. Olimpiadada Oʻzbekiston Respublikada faoliyat olib borayotgan tegishli oliy taʼlim muassasalarining kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari bakalavriat bosqich bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari mumkin.

10. Markaz Raqamli taʼlim texnologiyalarini rivojlantirish markazi bilan birgalikda topshiriqlar bazasini [olimpiada.edu.uz](http://olimpiada.edu.uz) elektron platformasiga test sinov topshiriqlarini kiritadi hamda topshiriqlar bazasining maxfiyligini taʼminlaydi.

11. Olimpiada oʻzbek va rus tillarida oʻtkazilishi mumkin.

**12. Olimpiada 2 turda oʻtkaziladi va 100 ball tizimda baholanadi:**

**1-tur. Nazariy qism - 50 ball.**

[olimpiada.edu.uz](http://olimpiada.edu.uz) elektron platformasida test shaklida boʻlib oʻtadi. Ishtirokchilar testni har bir fan boʻyicha olimpiadani oʻtkazishga masʼul hisoblangan oliy taʼlim muassasasi binosida video kuzatuv kamerasi nazoratida topshiradi.

Test topshiriqlari soni - 50 ta. Umumiy beriladigan vaqt - 60 daqiqa.

Har bir toʻgʻri javob 1 balldan baholanadi. Ishtirokchilar topshiriqlarni bajarishga berilgan vaqt oraligʻida tegishli fan boʻyicha test savollariga javob beradi.

Ishtirokchilarning 1-tur boʻyicha olgan ballari toʻgʻrisidagi maʼlumot test yakunlangandan soʻng, 1 soat ichida [olimpiada.edu.uz](http://olimpiada.edu.uz) elektron platformasiga joylanadi.

Ishtirokchilar 1-tur boʻyicha test savollariga 70% toʻgʻri javob bersa, (50 balldan 35 ball toʻplasa) keyingi 2-tur bosqichiga oʻtkaziladi.

**2-tur. Amaliy qism - 50 ball.**

Birinchi turdan o'tgan ishtirokchilar kimyo, biologiya va fizika fanlari bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajaradi. Topshiriqni bajarishga 120 daqiqa vaqt beriladi.

Amaliy qismida har bir fan bo'yicha 1 ta topshiriq beriladi. Topshiriqlarning to'g'ri va to'liq bajarilganligiga qarab 50 ballgacha baholanadi.

Olimpiadaning amaliy qismi uchun baholash mezonlari hakamlar hay'ati tomonidan ishlab chiqiladi.

Ikkinchi turda berilgan topshiriqni muddatidan oldin to'g'ri va aniq bajargan ishtirokchilarga ustunlik beriladi.

#### **4-bob. Olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibi**

13. Olimpiada g'oliblari 1- va 2-tur davomida to'plagan baliga qarab aniqlanadi. Har bir fan bo'yicha eng yuqori ball to'plagan 3 nafar ishtirokchi g'olib deb topiladi.

14. Barcha talabalar o'rtasida o'rinlarni taqsimlash olimpiadaning nazariy va amaliy qismida to'plagan ballar ketma-ketligi asosida yuqoridan pastga qarab I, II va III o'rin shaklida belgilanadi.

15. Olimpiada g'oliblari har bir fan uchun I, II va III o'rinlarga bittadan belgilanadi.

Agarda bitta o'ringa to'plagan umumiy bali bo'yicha 2 va undan ortiq nomzodlar to'g'ri kelib qolsa, g'olib quyidagicha aniqlanadi:

a) Da'vogarlar ichida milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega ishtirokchilar ustunlikka ega bo'ladi. Bunda, filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'nalishlar bo'yicha esa B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat bo'lishi lozim. Bunda nomzodning ikkita tur bo'yicha to'plagan umumiy baliga xalqaro sertifikatdagi bali qo'shilgan holda g'olib aniqlanadi.

b) Munosib nomzodni saralab olish maqsadida vazirlikning muvofiqlashtiruvchi Tashkiliy qo'mitasi qarori bilan 3 nafar mutaxassisdan iborat Komissiya tuziladi.

Oliy ta'lim muassasasi Tashkiliy qo'mitasi va tuzilgan Komissiya ishtirokida g'oliblikka munosib bir nafar nomzod qo'shimcha sinov topshiriqlari asosida saralab olinadi. Qo'shimcha sinov topshiriqlarini Komissiya tuzib chiqadi va g'olibni aniqlaydi. G'oliblikka da'vogar talabaning oliy ta'lim muassasasidan Komissiya tarkibiga nomzodlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu jarayon video kuzatuv kamerasi nazoratida o'tkaziladi va yozib olinadi.

#### **5-bob. Nizolarni ko'rib chiqish tartibi**

16. Shikoyat va arizalar Olimpiada natijalari e'lon qilingandan so'ng, apellyatsiya komissiyasida yozma tarzda qabul qilinadi va shu kunning o'zida ko'rib chiqilib, murojaatchiga e'lon qilinadi.

17. Talabalar tomonidan topshiriqlarga bo'lgan e'tirozlar topshiriqlar bazasini ekspertizadan o'tkazishga mas'ul bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rib chiqiladi va apellyatsiya xulosasi tayyorlanib Tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi.

18. Kelib tushgan e'tirozlar o'rinli deb topilsa, oliy ta'lim muassasasi Tashkiliy qo'mitasi va Komissiya qarori bilan ariza muallifiga qo'shimcha ball beriladi va asoslovchi hujjatlari vazirlikning muvofiqlashtiruvchi Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi.

#### **6-bob. Olimpiada g'oliblarini rag'batlantirish tartibi**

19. Olimpiada g'oliblarining oliy ta'lim muassasalari tegishli yo'nalishlari bo'yicha magistratura bosqichiga o'qishga imtiyozli qabul qilinishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga taklif kiritiladi.

20. Olimpiada yakunlari bo'yicha g'oliblarga vazirlikning tegishli diplomlari (I, II va III o'rinlar uchun) taqdim etiladi.

#### **7-bob. Olimpiadani yakunlash tartibi**

21. Olimpiadaning yakuniy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Vazirlikning muvofiqlashtiruvchi Tashkiliy qo'mitasi mas'ul kotibi umumlashtiradi hamda Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamentiga taqdim etadi.

22. Olimpiadani o'tkazish jarayonlari va yakuniy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar Vazirlikning hamda oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida, telegram kanallarida yoritiladi.



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining  
2024-yil "02" daqi  
"108"-son bayrog'iga 2 qo'shilova

**“Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika” hamda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlaridan respublika fan olimpiadasini o‘tkazish bo‘yicha mas’ul oliy ta’lim muassasalarining ro‘yxati**

T/r	OTM nomi	Fan nomi	OTMning tashkiliy qo‘mitasi raisi	OTFIVdan Biriktirilgan mas’ullar
1.	O‘zbekiston Milliy universiteti	Fizika, Biologiya	O‘zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Madjidov	Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori M.Boltabayev, Boshqarma boshlig‘i M.Esanov
2.	Toshkent axborot-texnologiyalar universiteti	Informatika va axborot texnologiyalari	Toshkent axborot-texnologiyalar universiteti rektori B.Sh.Mahkamov	Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktor o‘rinbosari R.Do‘sanov
3.	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	Kimyo	Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori B.Sh.Usmonov	Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo‘lim boshlig‘i Sh.Rasulov

**Izoh:** Olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish jarayonlariga qo‘shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.